

# **Илоҳий манба ўзаги (матрица)**

## **(Божественная матрица)**

### **(The Divine matrix)**

Дунёда аҳоли сонининг тўхтовсиз ўсиши, технологик ривож, инсоннинг комфортга (қулайлик) интилиши, ўзининг онгий қувват даражасини кучайтириши, ердаги ҳукмронлик етмаслиги ва унинг коинотлар бағридаги сайёralарга турли мақсадларда экспедиция уюштирилиши ва ҳоказалар одамзодни янги туганмас манба топишга мажбур этмоқда.

Шундай манбалардан бири, бу матрицадир, яъни манбанинг асосини ташкил қилувчи ўзакдир.

Энди инсонни Илоҳ фойдаланишга берган манба қизиқтирмай қўйди, чунки у манбадан У хоҳлагандай эмас, ўзи хоҳлагандай, истаганча, бекиёс ишлатиш нияти бор.

Хўш, матрица (манба ўзаги) ўзи нима ва нима учун у шунчалик долзарб бўлиб қолди? Уни тушуниш мумкинми? Унга эришиш мумкинми? Умуман у бор нарсами? Уни ўрганаётганлар тўғри йўлдами? Олимлар даражасида уни ўрганиб бўладими? - деган саволлар олдинга ташланади. Бу ҳали тажрибадан ўтмаган саволларга жавоб бериш учун бир оз орқага, яъни тарихга назар ташлаш лозим бўлади.

1944 йилда квант теориясининг отаси бўлмиш Марк Планк айнан манба ўзаги мавжудлиги, янги юлдузлар, ДНК ва ҳаёт ҳам ундан бошлангани тўғрисида айтиб ўтган. Олимлар ҳақиқатдан ҳам илоҳий матрица борлигини исбот қилувчи тажрибалар ўтказишган.

Бу ерда бир нарсага ойдинлик киргизиш лозим бўлади. Матрица сўзи рус тилига “матка, источник, начало” деб таржима қилинади. Аслида бу таржима ушбу воқеанинг асл том маъносини беролмайди, чунки ҳар қандай манба ҳам қаерданdir озуқа олади. Айнан ўзбек тилидага “манба ўзаги” деган ибора унинг моҳиятини очиб беради.

Бундай олиб кўрганда биз дунёга олдин яратилган ходисаларни кузатиш учун келганга ўхшаймиз, чунки ҳамма оламлар биздан олдин яратиб бўлинган. Хўш, ҳамма нарса биздан олдин яралиб бўлган бўлса, биз пассив кўрсатишимииз керакми ёки оламда ё ўзимизда ўзгаришлар хосил қилишга ҳаракат қилишимиз даркорми? Яъни Эйнштейн теориясида кетишимиз ёки ўзгариш яратишимиз лозимми? Қандай қилиб коинот воқеаларига таъсир ўтказа оламиз?

Шу ерда Эйнштейнинг “бизга ернинг таянч нұқтасини күрсатинг, биз уни түнтариб ташлай оламиз” деган фикрлари мавжуд.

Квант физикаси олими Дэвид Бом бу соҳада иккита оламшумул фикр беріб кетганды.

Бом айтадыки, олам якка бир гигант тизимдир, яъни коинотий гигант голлограмма.

Таъсир доирамизни кучайтириш, уни фаоллаштириш учун илохий манба ўзагини топишимиз керак бўлади.

Хўш, шундай манба ўзаги мавжуд экан, у билан қайси тилда ва қай тарзда муносабатда бўлиш мумкин? Олимлар матрица билан муносабатда, сон, алифбе, сўз керак бўлмайди, деган холосага келишган, яъни у билан ҳиссиёт тили орқали муносабат ўрнатса бўлди, дейишади.

Шундай қилиб матрицани ҳам топдик дейлик, лекин унинг хўжайини, унинг яратувчиси борлигини ҳисобга олмаяпмизку!

Барча олимлар ўзларининг таъқиқотларида илохий матрица ҳақида гапиришадиларку, лекин яратувчи, яъни Илоҳнинг ўзи ҳақида лом-лум дейишмайди. Наҳотки, қўлсиз қошиқни оғизга олиб бориш мумкин бўлса... Ундан сўнг ҳиссиёт тили ҳақида гап юритишганда, унинг қандайлиги, даражаси, хилма-хиллиги тўғрисида эслашмайди.

Илохий матрица билан муносабат қиласидан ҳис-туйғу тилини қандай ривожлантириш мумкин? Бунга ишлаб чиқилган методика мавжудми?

Ундан кейин даражаси юқориланган инсонларда дунёвий ҳис-туйғулар ўлиб боради, унда не бўлади? Илоҳга яқин одам матрицани тушуна олмайдими ёки унга кира олмайдими?!

Шак-шубҳасиз, инсон объект сифатида яратилибдими, у дунё матрицасига таъсир қиласдан иложи йўқ.

Фақат бу таъсир қандай, қай даражада, ким орқали рўй беришида бўлиб қолади.

Нега энди олимлар ўз даражаларида туриб холоса қилаяптики, аслида Илоҳ беріб қўйган илмлардан фойдаланмасдан дунёга жар солмоқдалар.

Қуръони Каримда бир одамда еттита тана мавжудлиги ҳақида муҳрлаб айтиб ўтилади. Айнан, қайси тана матрицани тушуна олади ва қайсиси унга таъсир кўрсатиш ҳиссиётига эга?!

Шундан кўриниб турибдики, манба ўзаги эгаси бўлмиш Илоҳсиз матрица маҳфиятига етиб бўлмайди. Уни ўрганиш, очиб бериш ва фойдалана олишлик Илоҳнинг илмларисиз рўй бермайди.



Икки юқорида айтиб ўтилган хуросага учинчисини ҳам алоҳида қайд қилиш керакки, Илоҳ томонидан яратилган инсон Уни танимасдан, унга нисбатан ибодат тизимини қўймасдан, илоҳият даражасига етмасдан матрицани очиш ҳақида ўйламаса ҳам бўлади. Илоҳий манба ўзагида туралган инсонда катта туганмас куч-қувват, турли-туман қобилияtlар, инсонлар тақдирига таъсир ўtkаза олиш имконияти, галактик воқеаларда қатнаша олиш, табиат ҳодисаларини қисман бўлсада ўзгартириши мумкин бўлади.

Дунёда инсонлар, фикрлар, ҳиссиётлар, иллюзиялар кўп, хоҳловчилар ундан ҳам кўп, лекин илоҳий даражага ягонадир. Илоҳий махфият – илоҳий инсонлар учундир.

Мовий бўшлиғингда учади борлик,  
Тебранади тўхтовсиз борлиқдаги вужудлар,  
Ўчмас из қолдирап борлиқда қувват,  
Манбанинг ўзагида турарсан Ўзинг.

Не ҳолни айладинг менга раво борлиқдан,  
Истагу – интилиш ҳисларин ўчириб менда.  
Ҳатто бўйсундирмоқ хоҳиши йўқолди сенда,  
Ўзга сайёralар қўйнига кеттиму борлиқ?!

Ибодатсиз йўлни топмоқ бўлмас, дединг,  
Умринг ўтса фақат мени дея, яша дединг.  
Мендаги ҳол агар Сендан бўлса, албатта.  
Нечун ном-нишони йўқ иккисидан ҳам.

Қўрқаман менлигим билмоқ истасам ўзим,  
Вужудим йўқлиқда яратар борлиқ.  
Сендаги қувватдан сезарман ўзда,  
Қўрқаман, не ҳолим бўлмоқда равшан.

Наҳот танамни бериб фоний дунёга,  
Истайсан, яратмоқ илоҳ оламни менда.  
Қўрқаман, ҳолимни англамоқ, ҳатто фикрда,  
Тенг бўлишга сенинг қувватинг ила.

**Сўфий табиб Нурсафардий**

# **Ilohiy manba o'zagi (matritsa)**

## **(Божественная матрица)**

### **(The Divine matrix)**

Dunyoda aholi sonining to'xtovsiz o'sishi, texnologik rivoj, insonning komfortga (qulaylik) intilishi, o'zining ongiy quvvat darajasini kuchaytirishi, erdagи hukmronlik etmasligi va uning koinotlar bag'ridagi sayyoralarga turli maqsadlarda ekspeditsiya uyuşhtirilishi va hokazalar odamzodni yangi tunganmas manba topishga majbur etmoqda.

Shunday manbalardan biri, bu matritsadir, ya'ni manbaning asosini tashkil qiluvchi o'zakdir.

Endi insonni Iloh foydalanishga bergan manba qiziqtirmay qo'ydi, chunki u manbadan U xohlaganday emas, o'zi xohlaganday, istagancha, beqiyos ishlatish niyati bor.

Xo'sh, matritsa (manba o'zagi) o'zi nima va nima uchun u shunchalik dolzarb bo'lib qoldi? Uni tushunish mumkinmi? Unga erishish mumkinmi? Umuman u bor narsami? Uni o'r ganayotganlar to'g'ri yo'ldami? Olimlar darajasida uni o'r ganib bo'ladimi? - degan savollar oldinga tashlanadi. Bu hali tajribadan o'tmagan savollarga javob berish uchun bir oz orqaga, ya'ni tarixga nazar tashlash lozim bo'ladi.

1944 yilda kvant teoriyasining otasi bo'lmish Mark Plank aynan manba o'zagi mavjudligi, yangi yulduzlar, DNK va hayot ham undan boshlangani to'g'risida aytib o'tgan. Olimlar haqiqatdan ham ilohiy matritsa borligini isbot qiluvchi tajribalar o'tkazishgan.

Bu erda bir narsaga oydinlik kirgizish lozim bo'ladi. Matritsa so'zi rus tiliga "matka, istochnik, nachalo" deb tarjima qilinadi. Aslida bu tarjima ushbu voqeanning asl tom ma'nosini berolmaydi, chunki har qanday manba ham qaerdandir ozuqa oladi. Aynan o'zbek tilidaga "manba o'zagi" degan ibora uning mohiyatini ochib beradi.

Bunday olib ko'rganda biz dunyoga oldin yaratilgan xodisalarni kuzatish uchun kelganga o'xshaymiz, chunki hamma olamlar bizdan oldin yaratib bo'lingan. Xo'sh, hamma narsa bizdan oldin yaralib bo'lgan bo'lsa, biz passiv ko'rsatishimiz kerakmi yoki olamda yo o'zimizda o'zgarishlar xosil qilishga harakat qilishimiz darkormi? Ya'ni Eynshteyn teoriyasida ketishimiz yoki o'zgarish yaratishimiz lozimmi? Qanday qilib koinot voqealariga ta'sir o'tkaza olamiz?

Shu erda Eynshteyning “bizga arning tayanch nuqtasini ko’rsating, biz uni to’ntarib tashlay olamiz” degan fikrlari mavjud.

Kvant fizikasi olimi Devid Bom bu sohada ikkita olamshumul fikr berib ketgan.

Bom aytadiki, olam yakka bir gigant tizimdir, ya’ni koinotiy gigant gollogramma.

Ta’sir doiramizni kuchaytirish, uni faollashtirish uchun ilohiy manba o’zagini topishimiz kerak bo’ladi.

Xo’sh, shunday manba o’zagi mavjud ekan, u bilan qaysi tilda va qay tarzda munosabatda bo’lish mumkin? Olimlar matritsa bilan munosabatda, son, alifbe, so’z kerak bo’lmaydi, degan xulosaga kelishgan, ya’ni u bilan hissiyot tili orqali munosabat o’rnatsa bo’ldi, deyishadi.

Shunday qilib matritsani ham topdik deylik, lekin uning xo’jayini, uning yaratuvchisi borligini hisobga olmayapmizku!

Barcha olimlar o’zlarining ta’qiqotlarida ilohiy matritsa haqida gapishtilardan, lekin yaratuvchi, ya’ni Ilohnинг o’zi haqida lom-lum deyishmaydi. Nahotki, qo’lsiz qoshiqni og’izga olib borish mumkin bo’lsa... Undan so’ng hissiyot tili haqida gap yuritishganda, uning qandayligi, darajasi, xilma-xilligi to’g’risida eslashmaydi.

Ilohiy matritsa bilan munosabat qiladigan his-tuyg’u tilini qanday rivojlantirish mumkin? Bunga ishlab chiqilgan metodika mavjudmi?

Undan keyin darajasi yuqorilangan insonlarda dunyoviy his-tuyg’ular o’lib boradi, unda ne bo’ladi? Ilohgaga yaqin odam matritsani tushuna olmaydimi yoki unga kira olmaydimi?!

Shak-shubhasiz, inson ob’ekt sifatida yaratilibdimi, u dunyo matritsasiga ta’sir qilmasdan iloji yo’q.

Faqat bu ta’sir qanday, qay darajada, kim orqali ro’y berishida bo’lib qoladi.

Nega endi olimlar o’z darajalarida turib xulosa qilayaptiki, aslida Iloh berib qo’ygan ilmlardan foydalanmasdan dunyoga jar solmoqdalar.

Qur’oni Karimda bir odamda ettita tana mavjudligi haqida muhrlab aytib o’tiladi. Aynan, qaysi tana matritsani tushuna oladi va qaysisi unga ta’sir ko’rsatish hissiyotiga ega?!

Shundan ko’rinib turibdiki, manba o’zagi egasi bo’lmish Ilohsiz matritsa maxfiyatiga etib bo’lmaydi. Uni o’rganish, ochib berish va foydalana olishlik Ilohnинг ilmlarisiz ro’y bermaydi.



Ikki yuqorida aytib o'tilgan xulosaga uchinchisini ham alohida qayd qilish kerakki, Iloh tomonidan yaratilgan inson Uni tanimasdan, unga nisbatan ibodat tizimini qo'ymasdan, ilohiyat darajasiga etmasdan matritsani ochish haqida o'ylamasa ham bo'ladi. Ilohiy manba o'zagida tura olgan insonda katta tunganmas kuch-quvvat, turli-tuman qobiliyatlar, insonlar taqdiriga ta'sir o'tkaza olish imkoniyati, gallaktik voqealarda qatnasha olish, tabiat hodisalarini qisman bo'lsada o'zgartirishi mumkin bo'ladi.

Dunyoda insonlar, fikrlar, hissiyotlar, illyuziyalar ko'p, xohlovchilar undan ham ko'p, lekin ilohiy darajaga yagonadir. Ilohiy maxfiyat – ilohiy insonlar uchundir.

Moviy bo'shlig'ingda uchadi borliq,  
Tebranadi to'xtovsiz borliqdagi vujudlar,  
O'chmas iz qoldirar borliqda quvvat,  
Manbaning o'zagida turarsan O'zing.

Ne holni aylading menga ravo borliqdan,  
Istagu – intilish hislarin o’chirib menda.  
Hatto bo’ysundirmoq xohishi yo’qoldi senda,  
O’zga sayyoralar qo’yniga kettimu borliq?!

Ibodatsiz yo’lni topmoq bo’lmas, deding,  
Umring o’tsa faqat meni deya, yasha deding.  
Mendagi hol agar Sendan bo’lsa, albatta.  
Nechun nom-nishoni yo’q ikkisidan ham.

Qo’rqaman menligim bilmoq istasam o’zim,  
Vujudim yo’qliqda yaratar borliq.  
Sendagi quvvatdan sezarman o’zda,  
Qo’rqaman, ne holda holim bo’lmoqda ravshan.

Nahot tanamni berib foniy dunyoga,  
Istaysan, yaratmoq iloh olamni menda.  
Qo’rqaman, holimni anglamoq, hatto fikrda,  
Teng bo’lishga sening quvvating ila.

**So’fiy tabib Nursafardiy**